XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 5 - iyul VI-45-124-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida"gi O'RQ-303-son qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022- yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Djumayevning tumandagi ayrim Geografik ob'ektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Tuman bo‘yicha berilgan georgafik obyektlar (nomsiz ko‘chalar) mahallalar kesimida nomlash va qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud geografik obyektlar (nomsiz ko‘chalar)ning nomlash bo‘yicha berilgan takliflar Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, tasdiqlash maqsadida xalq

deputatlari tuman Kengashi qarori asosida davlat reestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman
Kengashining
2022 yil 5 iyuldagi
VI-45-124-8-108-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha berilgan nomlarni Respublika Kadastr agentlgi tomonidan ekspertizadan o‘tkazish maqsadida berilgan takliflar ro‘yxati

№	Gegrafik obeyktning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh:
1	2	3	4	5	6
1.	**Ko‘cha**	“ Navro‘z” MFY	Nomsiz	Istiqbolli hayot	Mahalla yoshlarining ertangi istiqbolli hayotlariga havas qilinib shu nom taklifi berildi.
2	**Ko‘cha**	“ Navro‘z” MFY	Nomsiz	Mustaqillikning 30 yilligi	1.Ushbu ko‘chaga mustaqilligimizning 30 yilligi sharafiga ushbu nom taklifi berildi
3	**Ko‘cha**	“ Jobu” MFY	Nomsiz	Qadr-qimmat	Insonlarning bir-birini qadr-qimmatini joyiga qo‘yishi va bir-biriga hurmatli ekanligi sababli uchun shu nom taklifi berildi.
4	**Ko‘cha**	“ Jobu” MFY	Nomsiz	**Jahon otin Uvaysiy**	1. **Jahon otin Uvaysiy** (taxallusi; ismi Jahon) (1779 – Marg‘ilon – 1845) — atoqli o‘zbek shoirasi, o‘zbek shoirlari murabbiysi, ma’rifatparvar. Otasi Siddiq bobo ikki tilda she’rlar yozgan. Onasi Chinnibibi otinoyi bo‘lib, akasi Oxunjon hofiz sifatida mashhur edi. Uvaysiy oilada xatsavodini chiqarib, avval xalfa, so‘ngra onasining yonida maktabdorlik qilgan.
5	**Ko‘cha**	“ Ipoq” MFY	Nomsiz	Yangi O‘zbekiston	Yangi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri sharafiga ushbu nom taklifi berildi.
6	**Ko‘cha**	“ Ipoq” MFY	Nomsiz	Koinot zavqi	Ushbu ko‘chada Koinot nomli savdo markazining mavjudligi va odamlar shunga o‘rganganligi uchun ushbu nom taklifi berildi